

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI
MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

ABDULLAYEVA MALIKABONU ERKIN QIZI

**XALQ TA’LIMI SOHASIDA KORRUPSIYANI
OLDINI OLISH MASALALARI**

12.00.12 – Korruptsiya muammolari (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Content of the abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Abdullayeva Malikabonu Erkin qizi

Xalq ta’limi sohasida korrupsiyani oldini olish masalalari.....3-23

Abdullaeva Malikabonu Erkin kizi

Issues of preventing corruption in the field of public education.....24-43

Абдуллаева Маликабону Эркин кизи

Вопросы предупреждения коррупции в сфере народного образования.....44-48

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ49-50

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI
MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI**

ABDULLAYEVA MALIKABONU ERKIN QIZI

**XALQ TA’LIMI SOHASIDA KORRUPSIYANI
OLDINI OLISH MASALALARI**

12.00.12 – Korruptsiya muammolari (yuridik fanlar)

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Yu516 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.proacademy.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Astanov Istam Rustamovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tuxtasheva Umida Abdilovna
yuridik fanlar doktori, professor

Davlyatov Valisher Xakimjanovich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat yuridik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/31.12.2020.Yu.67.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil 15 dekabr soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrizabz ko‘chasi, 42. Tel.: (99871) 202-04-96; faks: (99871) 233-35-81; e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya bilan Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (33-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Shahrizabz ko‘chasi, 42. e-mail: info@proacademy.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 27-noyabr kuni tarqatildi.
(2023-yil 20-noyabrdagi 13-raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M.Mamasiddiqov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

SH.I.Shayzakov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.A.Aminjonova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (PhD) falsafa doktori dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda korrupsiyaning oldini olish, xususan ta'lim sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Korrupsiyaviy jinoyatlarning bevosita maktab o'quvchilari ko'z o'ngida yoki ularning ishtirokida sodir etilishi ularning ongida korrupsiyaning normal holat sifatida shakllanishiga sabab bo'ladi. Transparency International xalqaro tashkilotining hisobotiga ko'ra, bugungi kunda jahonda ta'limning barcha bosqichlarida korrupsiyaga to'qnash kelishimiz mumkin¹. Jahon banki tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda esa, maktablarda korrupsiya darajasi yuqori ekanligi, birgina darsda ishtirok etmagan o'qituvchilar uchun asossiz ish haqi hisoblash darajasi butun dunyoda o'rtacha 11 foizdan 30 foizgachani tashkil etishi aniqlangan². Shu bilan birga, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt hamda boshqa xalqaro hujjatlarda bolalarning sifatli ta'lim olishda teng huquqlarga ega ekanligi belgilab berilgan bo'lsa-da, ushbu huquq muttasil buzilib kelinmoqda. Bularning barchasi, xalqaro maydonda ta'lim sohasida korrupsiyaning oldini olish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini ko'rsatib bermoqda.

Jahonda xalq ta'limi sohasida korrupsiyaning oldini olish, xususan, bolalarni o'qishga qabul qilish jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash, o'qituvchilar bilan mehnat munosabatlarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etish masalalariga oid ilmiy tadqiqotlarni bajarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, o'qituvchilarni ishga qabul qilish va ularga ish haqi to'lashda soxtakorliklarga yo'l qo'yish orqali budjet mablag'larining o'zlashtirilishiga qarshi kurashish, maktab o'quvchilarining bevosita korrupsiyaviy munosabatlar ishtirokchisiga aylanib qolishining, umuman olganda, xalq ta'limi sohasida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilash sohasida tadqiqotlar o'tkazishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish, davlat boshqaruvining muayyan sohalarida kesimida, xususan, xalq ta'limi sohasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq, xalq ta'limi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmini yaratish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Farmonda belgilanganidek, "umumta'lim muassasalariga bolalarni qabul qilish, shuningdek, o'quv jarayonida turli shakldagi korrupsiya elementlariga barham berish bo'yicha samarali mexanizmlarni joriy qilish talab

¹ Global Corruption Report: Education - Publications. <https://www.transparency.org/en/publications/global-corruption-report-education>.

² The Hidden Cost of Corruption: Teacher Absenteeism and Loss in Schools. <https://blogs.worldbank.org/education/hidden-cost-corruption-teacher-absenteeism-and-loss-schools>.

etilmoqda”³. Shu sababli, xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olish mavzusida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi (2017), “Ta’lim to‘g‘risida”gi (2020) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 28-fevraldagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son, 2022-yil 11-maydagi “2022–2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-son, 2022-yil 1-iyundagi “Xalq ta’limi tizimida davlat xizmatlari ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 295-son qarorlari hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Korrupsiya va uning mohiyati, uning shakllari va unga qarshi kurashishga oid samarali mexanizmlar masalalari milliy olimlarimiz tomonidan muayyan darajada tadqiq qilingan. Jumladan, korrupsiyaga oid ilmiy-nazariy muammolar B.D.Axrarov, R.A.Zufarov, Q.Tojiboyev, Q.R.Abdurasulova, Y.V.Kolenko, B.I.Ismoilov, T.I.Kenjayev, M.Y.Muxammadiyeva, A.P.Allabergenov va M.X.Sulaymanov kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Shu bilan birga, ta’lim sohasida korrupsiyaning oldini olish masalalari I.Djurayev, N.Sobirova, Z.Qo‘chqorov, D.Qulliyev, R.I.Mirzayev kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, “Yuksalish” umummilliy harakati hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan “Mintaqaviy muloqot” xalqaro nodavlat tashkiloti ekspertlari bilan hamkorlikda tashkil etilgan “O‘zbekistonda birinchi antikorrupsiya laboratoriyalarini yaratish” loyihasi doirasida N.Ro‘ziqulov va L.Stayshyunayte tomonidan boshlang‘ich maktabga qabul qilishda korrupsiya xavf-xatarini baholash bo‘yicha tadqiqot amalga oshirilgan hamda tadqiqot yakunlari bo‘yicha yakuniy hisobot tayyorlangan bo‘lib, mazkur tadqiqot xalq ta’limi tizimida korrupsiyaning oldini olish masalalariga bag‘ishlangan yagona salmoqli tadqiqot hisoblanadi.

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 aprelidagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2021 y., 06/21/6268/0700-son; 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son; 13.06.2023 y., 06/23/92/0366-son

MDH tarkibiga kiruvchi mamlakatlar olimlaridan S.V.Alekseyev, T.S.Demchenko, I.S.Kupriyanov, E.O.Leontyeva va L.V.Loginova kabi olimlar o‘z tadqiqot ishlarida ta’lim sohasida korrupsiya muammolari masalalariga to‘xtalib o‘tganlar.

Shuningdek, mazkur tadqiqot mavzusi chet el olimlaridan J.Hallak, M.Poisson, N.Bennet, M. Bettina, D.Chapman, J.Deliversky, M.Kirya, S.P.Heyneman, T.Ogrodzinska, S.Tanaka, I.Wysmułek kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan⁴.

Biroq, xalq ta’limi tizimida korrupsiyaning oldini olishning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari, tizimda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar, sohada korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajriba hamda ularni O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning maqsadga muvofiqligi va samaradorligi kabi masalalar tadqiqot predmeti sifatida kompleks tarzda o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan bo‘lib, “Korrupsiya muammolari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olish masalalari bo‘yicha kompleks ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish, muammoli masalalar yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalari hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olish tushunchasi, maqsad va vazifalarini o‘rganish;

xalq ta’limida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asoslarini tahlil qilish;

xalq ta’limi tizimidagi korrupsiyaning turlari va shakllari bo‘yicha bildirilgan nazariyalar va tasniflarni qiyosiy jihatdan o‘rganish va mualliflik tasnifini ishlab chiqish;

xalq ta’limida ma’muriy boshqaruv va mehnat munosabatlari bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillarni tahlil qilish;

maktabga qabul qilish va o‘quv faoliyatini tashkil etishda korrupsiyaviy omillarni tahlil qilish;

xalq ta’limi tizimida moliya-xo‘jalik faoliyatidagi korrupsiyaviy omillar tahlilini amalga oshirish;

xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olishga oid xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitida joriy etish imkoniyatlarini tahlil qilish;

xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi va istiqbollarini o‘rganish;

⁴ Ushbu mualliflarning ilmiy ishlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan

xalq ta'limi sohasida korrupsiyaning oldini olishga oid milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti xalq ta'limi sohasida korrupsiyaning oldini olishga oid ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti xalq ta'limi sohasida korrupsiyaning oldini olishning nazariy va huquqiy asoslari, mazkur sohada mavjud bo'lgan ma'muriy boshqaruv, mehnat munosabatlari, maktabga qabul qilish, o'quv va moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq korrupsiyaviy omillar, shuningdek ayrim xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi asosida xalq ta'limi sohasida korrupsiyaning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish masalalaridan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot olib borishda tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tajribali umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlaridan iborat bo'lgan Direktorlar kengashlarini tuzish hamda maktab direktorlarini lavozimiga tayinlash vakolatini mazkur Direktorlar kengashlari tavsiyasiga asosan tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan ochiq tanlov asosida amalga oshirish tartibini qonunchilikda belgilash lozimligi asoslantirilgan;

ta'lim berishga mo'ljallangan binolar va inshootlarni ta'lim sohasidan tashqari boshqa maqsadlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berilishini taqiqlanishini qonunchilikda mustahkamlash asoslantirilgan;

xalq ta'limi tizimida pedagog xodimlarning mutaxassisligi bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish hamda ish faoliyati samaradorligini oshirish va rag'batlantirish maqsadida Markaz direktori va to'garak rahbarlarining mehnati ularning faoliyat samaradorligini baholash mezonlari (KPI) asosida direktor jamg'armasi hamda Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Xalq ta'limi sohasida islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari hisobidan har oyda qo'shimcha rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlarini shakllantirish asoslantirilgan;

xalq ta'limi tizimidagi xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga ta'limning kredit-modul tizimini joriy qilish orqali malaka oshirish muassasalarining mansabdor yoki vakolatli shaxslarining baholash tizimiga aralashish (inson faktorini) imkonini cheklashga, baholash tizimini esa avtomatik tarzda chiqarish imkonini beruvchi tizimni shakllantirish va uni huquqiy tartibga solish lozimligi asoslantirilgan;

“Uzluksiz kasbiy ta'lim” maxsus elektron platformani yuritishni tashkil qilish, malaka oshirish tashkilotlari bilan birgalikda qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslari o'quv modullari kontentini markazlashtirilgan tarzda ishlab chiqish va platformaga kiritish bo'yicha vazifalarni yuklash orqali o'quv modullarini platformaga kiritish hamda imtihonlarni elektron tizim orqali topshirish natijalariga ko'ra, uni yakunlash imkoniyatini yaratish orqali imtihon oluvchilarning

korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini cheklash tizimini joriy etishni qonunchilikda aks ettirish zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktab direktori va o'qituvchi lavozimiga nomzodlarni tanlab olish jarayonlarini to'liq onlayn kuzatib borish orqali shaffof tanlov mexanizmlarini yaratish maqsadga muvofiqligi asoslantirildi;

korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishda maktablarda boshlang'ich sinflardan boshlab maktab o'quvchilariga yuksak axloqiy ta'lim berish tizimini joriy etish, korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ta'lim moduli (o'quv dasturi)ni ishlab chiqish zaruriyati ilmiy asoslantirildi;

maktabga bolalarni qabul qilishdan boshlab, to ularning bilimni baholashgacha bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish bo'yicha aniq ilmiy asoslantirilgan yechimlar ishlab chiqildi va ilgari surildi;

bolalarni maktablarga ta'lim tili bo'yicha qabul qilishda korrupsiyaning oldini olishga oid mexanizmlar ishlab chiqildi;

o'qituvchilarning soxta hujjatlar orqali ishga joylashishi, shuningdek, mavjud bo'lmagan o'qituvchilarga yoki o'tilmagan darslar uchun oylik ish haqi hisoblanishi holatlari O'zbekistonda kuzatilgan real misollar asosida tahlil qilindi hamda ularning oldini olish bo'yicha yechimlar ilgari surildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlar, ijtimoiy so'rovlar va tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Tadqiqot davomida olingan ilmiy va nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilgan hamda ularning natijalari milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, muallif tomonidan ishlab chiqilgan xalq ta'limi sohasida korrupsiyaning oldini olishga oid ilmiy-nazariy xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar kelgusidagi ilmiy faoliyatda, korrupsiya muammolari bilan bog'liq fanlarni nazariy jihatdan boyitishga hamda yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ulardan xalq ta'limi sohasiga oid qonunchilikni takomillashtirish hamda huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudlar faoliyatida, oliy yuridik ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida, xususan, "Korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy asoslari", "Korrupsiya jinoyatlarini aniqlash va tergov qilish" hamda "Korrupsiyaning oldini olish muammolari" modullari doirasida o'quv mashg'ulotlari o'tkazishda, shuningdek, o'quv, uslubiy adabiyotlar tayyorlashda, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

tajribali umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlaridan iborat bo'lgan Direktorlar kengashlarini tuzish hamda maktab direktorlarini lavozimiga tayinlash

vakolatini mazkur Direktorlar kengashlari tavsiyasiga asosan tegishli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari tomonidan ochiq tanlov asosida amalga oshirish tartibini belgilash bilan bog‘liq takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni bilan tasdiqlangan Maktabgacha va maktab ta‘limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha Yo‘l xaritasining 10-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi 12-15-81-son dalolatnomasi). Mazkur taklif maktab direktorlarini lavozimiga tayinlashning ochiq tanlov shaklini qonunchilikda aks etishiga xizmat qiladi;

ta‘lim berishga mo‘ljallangan binolari va inshootlarini ta‘lim sohasidan tashqari boshqa maqsadlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi taqiqlanishi bilan bog‘liq takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Maktabgacha va maktab ta‘limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-241-son qarorining 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentabrdagi 12-15-81-son dalolatnomasi). Mazkur taklif maktab bino va inshootlarini noqonuniy ravishda ijaraga berishni taqiqlash orqali korrupsiyaviy holatlarni oldini olishni qonunchilikda mustahkamlashga xizmat qiladi;

xalq ta‘limi tizimida pedagog xodimlarning mutaxassislik bo‘yicha zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda ish faoliyati samaradorligini oshirish va rag‘batlantirish maqsadida Markaz direktori va to‘garak rahbarlarining mehnati ularning faoliyat samaradorligini baholash mezonlari (KPI) asosida direktor jamg‘armasi hamda Xalq ta‘limi vazirligi huzuridagi Xalq ta‘limi sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan har oyda qo‘shimcha rag‘batlantirish bilan bog‘liq takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-iyuldagi “Xalq ta‘limi vazirligi tizimida o‘quvchi-yoshlarni kelajak kasblariga tayyorlash markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 390-son qarorining 7-qismini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-noyabrdagi 12/21-84-son dalolatnomasi). Mazkur taklif xalq ta‘limi tizimida pedagog xodimlarning mutaxassislik bo‘yicha zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish hamda ish faoliyati samaradorligini oshirish va rag‘batlantirishning huquqiy mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi;

xalq ta‘limi tizimidagi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va ularning rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga tinglovchining alohida o‘quv modullari bo‘yicha o‘qitish va ballarda ifodalangan o‘zlashtirishini o‘z ichiga olgan ta‘limning kredit-modul tizimini joriy qilish yuzasidan taklifidan Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta‘limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-son

qarorining 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-apreldagi 12/21-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklif tegishli malaka oshirish muassasalarining mansabdor yoki vakolatli shaxslarining baholash tizimiga aralashish (inson faktorini) imkonini cheklashga, baholash tizimini esa avtomatik tarzga o‘tishiga hamda uni huquqiy tartibga solishga xizmat qiladi;

A.Avloniy nomidagi Xalq ta’limi muammolarini o‘rganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti zimmasiga “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformani yuritishni tashkil qilish, malaka oshirish tashkilotlari bilan birgalikda qayta tayyorlash hamda malaka oshirish kurslari o‘quv modullari kontenti markazlashtirilgan tarzda ishlab chiqish va platformaga kiritish bo‘yicha vazifalarni yuklash to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 25-son qarori bilan tasdiqlangan Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomning 12-bandini tayyorlashda inobatga olingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 18-apreldagi 12/21-24-son dalolatnomasi). Mazkur taklif o‘quv modullarini platformaga kiritish orqali qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonini imtihonlarini elektron tizimdan topshirish natijalariga ko‘ra uni yakunlash imkoniyatini berdi. Bu esa, ushbu jarayonlarda imtihon oluvchilarning korrupsiyaviy harakatlar amalga oshirish imkoniyatini cheklashning qonuniy asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta (2 ta xalqaro, 4 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish, shu jumladan, xalqaro jurnallarda 4 ta, OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, xalqaro konferensiyalarda 2 ta, milliy konferensiyalarda 3 ta maqola hamda 2 ta tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘qqizta paragrafdan iborat bo‘lgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish (dissertatsiya annotatsiyasi)** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan hamda texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, natijalarning aprobatsiyasi, e‘lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishiga oid ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olishning nazariy va huquqiy asoslari**” deb nomlanib, uning “Xalq ta’limi sohasida

korrupsiyaning oldini olish tushunchasi, maqsad va vazifalari” mavzusidagi birinchi paragrafida xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olish tushunchasi, maqsad va vazifalari tahlil etilgan.

Ta’lim sohasidagi “korrupsiya” tushunchasiga dastlabki ilmiy yo‘nalishdagi ta’rifni S. Heyneman bergan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, ta’limda korrupsiya shaxsiy va moddiy manfaat uchun vakolatni suiste‘mol qilish hisoblanadi. F. Anekyariko va D. Djeykobs ta’lim sohasidagi korrupsiyaga moddiy manfaat uchun vakolatni suiste‘mol qilish sifatida ta’rif bergan bo‘lsa, A. Osipian, ta’lim sohasida korrupsiyani davlat yoki korporativ ishonchni suiste‘mol qilish orqali taqiqlangan moddiy yoki nomoddiy boyliklar olishdagi munosabatlarni tartibga solish uchun yaratilgan norasmiy aloqalar tizimi deb ta’riflagan. Dissertant tomonidan mazkur ta’riflar tahlil qilinib, ular ayrim jihatlari bo‘yicha bir-birini to‘ldirsa-da, xalq ta’limi sohasidagi korrupsiya tushunchasini umumiy ma‘nodagi korrupsiya tushunchasidan farqlovchi xususiyatlarni ochib berilmagan, degan xulosaga kelingan.

Shuningdek, tahlillar natijasida dissertant tomonidan “xalq ta’limi sohasida korrupsiya” tushunchasiga nisbatan quyidagicha mualliflik ta’rifi taklif etildi: *“Xalq ta’limi sohasidagi korrupsiya – xalq ta’limi sohasida faoliyat yurituvchi shaxsning maktab ta’limi sohasida ma‘muriy boshqaruv, ta’lim jarayoni, mehnat munosabatlari, moliya-xo‘jalik faoliyatida xizmat yoki mansab mavqeidan, shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy foyda olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi (harakat yoki harakatsizlik) shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish, biron noqonuniy afzallikni va’da qilish, taklif etish hisoblanadi”*.

Shuningdek, tadqiqotchi tomonidan xalq ta’limi sohasidagi korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchasiga nisbatan quyidagicha mualliflik ta’rifi berildi: *“Xalq ta’limi sohasidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlar – bu xalq ta’limi sohasidagi davlat organlari, ta’lim muassasalari (davlat yoki xususiy) xodimlari, o‘qituvchi va o‘quvchilar va boshqa subyektlar faoliyati jarayonida yuzaga keladigan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkonini yaratadigan holatlar, omillar va harakatlardir”*.

Birinchi bobning **“Xalq ta’limi tizimida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida sohani tartibga solishga qaratilgan 5 ta qonun, 10 ta qonunosti hujjatlari, shu jumladan, 4 ta bevosita xalq ta’limi sohasida korrupsiyani oldini olishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, 1 ta Prezident farmoyishi, 10 ga yaqin ichki lokal hujjatlari tahlil etilgan bo‘lib, tadqiqotchi tomonidan bugungi globallashuv jarayonida korrupsiyaning shiddat bilan avj olishi va uni dunyo bo‘ylab tarqalishi, ushbu illatni oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yaratishda milliy huquq normalarini xalqaro huquq normalari va standartlariga asosan ishlab chiqish zarurligi, korrupsiyaga qarshi faqatgina milliy huquqiy institut va mexanizmlar orqali qarshi kurashishning imkoni yo‘qligi to‘g‘risidagi xulosaga kelingan.

“Xalq ta’limi tizimidagi korrupsiyaning tasniflanishi” deb nomlangan uchinchi paragrafda muallif tomonidan xalq ta’limi sohasida mavjud bo‘lgan

korruptsiyani tasniflash bo'yicha milliy va xalqaro darajadagi olimlar tomonidan ko'plab mezonlar keltirib o'tilganligi, mazkur holat, ya'ni, korruptsiyani tasniflashda aniq bir mezonga emas, balki turli mezonlarga asoslanishi korruptsiyaning asl sabablarini va uni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlashimizga, uning mohiyatini teranroq anglashga va natijada, xalq ta'limi sohasida korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishda eng maqbul yechimlarni ishlab chiqishga yordam beradi, degan xulosa ilgari surilgan.

Dissertant tomonidan xalq ta'limi sohasidagi korruptsiyani yuzaga keladigan yo'nalishiga ko'ra, mulkchilik shakliga ko'ra, yuzaga kelish bosqichiga ko'ra, tuzilishiga ko'ra, hamda subyektlari doirasiga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiqligi haqida xulosaga kelindi.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi **“Xalq ta'limida ma'muriy boshqaruv va mehnat munosabatlari bilan bog'liq korruptsiyaviy omillar tahlili”** deb nomlanib, muallif xususiy maktablarni tashkil etish uchun litsenziya olishdagi noaniq talablar va korruptsiogen normalar mavjudligi, jumladan, faoliyatni litsenziyalash pasportida keltirilgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotining hududini ko'klamzorlashtirish, kamida 50 % hududda Wi-Fi zonalar tashkil etish kabi turlicha talablarni amalga oshirish murakkabligi, bu holat esa, korruptsiyaviy harakatlar orqali uni yashirish uchun harakat qilinishiga olib keladi, degan xulosaga kelgan. Dissertant xalq ta'limi sohasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korruptsiyaviy omillar sifatida xalq ta'limi sohasi xodimlarining ish haqi past darajada bo'lib qolayotganligini qayd etib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan e'lon qilingan 2022-yil uchun o'rtacha ish haqiga oid statistik ma'lumotlarga ko'ra, ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan xodimlar eng kam ish haqi olish bo'yicha ikkinchi o'rinda (2,7 mln so'm) ekanligini asos qilib ko'rsatadi.

Shuningdek, muallif o'qituvchilik lavozimi uchun ishga qabul qilish bo'yicha tanlovlarning ochiq-oshkora va shaffof o'tkazilmasligi, o'quv soatlarini taqsimlashning aniq mexanizmlari ishlab chiqilmaganligi, mazkur masalalarning har taraflama maktab direktoriga bog'liq bo'lib qolayotganligi, maktab xodimlarini ishga qabul qilishda ularning hujjatlarini tekshirishga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi sababli soxta diplom bilan ishga kirish holatlari uchrayotganligi, “arvoh o'qituvchilar”, ya'ni, haqiqatda mavjud bo'lmagan o'qituvchilar uchun oylik ish haqi hisoblash, shuningdek, mavjud o'qituvchilarga ular tomonidan o'tilmagan dars uchun pul to'lanishi, maktab direktori lavozimiga muqaddam sudlangan shaxslarning tayinlanayotganligi kabi holatlarni xalq ta'limida ma'muriy boshqaruv va mehnat munosabatlari bilan bog'liq yuzaga keladigan korruptsiyaviy omillar sifatida talqin qiladi. Mazkur paragrafda keltirib o'tilgan sohaga oid muammolar (sohada korruptsiyani keltirib chiqaruvchi omillar) dissertatsiyaning so'nggi bobida takliflarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Maktabga qabul qilish va o'quv faoliyatini tashkil etishda korruptsiyaviy omillar tahlili”** deb nomlanib, mazkur paragrafda dissertant tomonidan maktab direktorlari tomonidan qo'shimcha kvotalar uchun nomzodlar aynan qaysi mezonlar asosida ko'rib chiqilishi aniq

belgilanmaganligi sohada korrupsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi, qo'shimcha kvota asosida maktabga qabul qilingan birinchi sinf o'quvchilarining ro'yxati (mandat) ochiq e'lon qilinmasligi sababli, mazkur masalaga mas'ul bo'lgan maktab direktorlarida qo'shimcha kvota asosida qabul jarayonlarida nohalollikka yo'l qo'yilishi va hujjatlarni soxtalashtirish uchun imkoniyat yuzaga kelishi, bolalarni maktablarga asosiy va qo'shimcha kvotalar bo'yicha qabul qilish haqida ota-onalarda batafsil va unifikatsiyalangan axborotning mavjud emasligi, maktabga qabul qilish tartibining mazmun-mohiyatini sodda, xalqchil tilda yetarli darajada yetkazib berilmasligi hamda axborot yetkazib berishning samarasiz tizimi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi to'g'risidagi xulosalar asoslantirilgan.

Shuningdek, ota-onalarda o'z farzandini xorijiy tilda, jumladan, rus tilida o'qitiladigan sinflarga joylashtirishga bo'lgan ehtiyojning mavjud talab (rus tilida o'qitiladigan sinflar kvotalari)dan ko'ra yuqori ekanligi, bunday talabning yuqoriligi ota-onalarni o'z maqsadlariga pora berish yo'li bilan erishishga undashi, davlat maktablari o'qituvchilarining yuqori ish yuklamasi va past darajadagi ish haqi bilan ishlashi ularda o'z kasblariga bo'lgan sadoqatning hamda halollik darajasining pasayishiga va oqibatda o'quvchilarning ota-onalaridan sovg'a-salomlar yoki pul ko'rinishidagi pora olib, ta'lim jarayonida ularning farzandlariga alohida yaxshiroq e'tibor qaratishlariga sabab bo'lishi haqida xulosaga kelingan.

Dissertant o'quvchilarni baholash jarayonida, jumladan joriy nazorat, oraliq nazorat va bosqichli nazorat shaklidagi imtihonlarni o'tkazish jarayonlariga korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan mexanizmlar, jumladan, ishlarni o'quvchining ism-familiyasi bilan emas, balki maxsus raqamlagan holda olish kabi mexanizmlar joriy etilmaganligi ushbu jarayonlarda korrupsiyaning kelib chiqishiga sabab bo'ladi, deb hisoblaydi. Muallif tomonidan fan olimpiadalarini o'tkazish jarayonlarining shaffof emasligi, jumladan ularning onlayn shaklda translyatsiya qilib borilmasligi mazkur jarayonlar ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish imkoniyatini yo'qqa chiqarib, ushbu sohada korrupsiyani keltirib chiqarish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi, degan xulosaga kelingan.

Ushbu bobning **“Xalq ta'limi tizimida moliya-xo'jalik faoliyatidagi korrupsiyaviy omillar tahlili”** deb nomlangan uchinchi paragrafida dissertant O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan taqdim etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarga oid rasmiy statistik ma'lumotlar va xalq ta'limi sohasida 2021-yildan shu kungacha sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlar tavsifini batafsil tahlil qilgan. Tahlillar natijasida muallif xalq ta'limi tizimida moliya-xo'jalik faoliyatidagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish maqsadida, moliyalashtirishda shaffoflikni va samaradorlikni ta'minlash uchun hamma foydalanishi mumkin bo'lgan PETS mexanizmi va samaradorlikni baholash imkonini beruvchi boshqa zamonaviy elektron yechimlar joriy etilgan ochiq ma'lumotlar elektron platformasini joriy qilish lozimligi, xalq ta'limi tizimidagi qurilish ishlariga mas'ul bo'lgan texnika nazorati mutaxassislarini qayta o'qitish, obyektlarni yangidan qurish, rekonstruksiya qilinishi bilan bog'liq ishlarda haqiqatda bajarilgan ishlarni ko'rsatuvchi ma'lumotlarni muntazam ravishda bosqichma-bosqich ekspertizadan

o‘tkazishni nazarda tutuvchi tashkiliy choralar ko‘rish kerakligi, maktablarning budjetdan tashqari mablag‘larini, ota-onalar va homiylardan tushgan moliyaviy yordam mablag‘larini, ko‘rsatilgan xizmatlarni (uzaytirilgan kun guruhlari, qo‘shimcha mashg‘ulotlar, repetitorlik) realizatsiya qilishdan tushadigan mablag‘larni hisobga olish va sarflash masalalarini qonun hujjatlari asosida normativ tarzda tartibga solish lozimligi haqidagi takliflarni ilgari suradi.

Dissertant xalq ta’limi tizimidagi moliya-xo‘jalik faoliyatini markazlashtirilgan shakldan individual shaklga o‘tkazishni, ya’ni, har bir ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi bo‘lishini ta’minlash zarurligini bildiradi. Shuningdek, xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatuvchi barcha xodimlar uchun ish haqini ularning erishgan yutuqlari va halol-vijdonan mehnat qilgan xodimlarga qo‘shimcha ustama (rag‘batlantirish) to‘lovlari belgilash, xalq ta’limi tizimida “KPI” tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish lozimligi, budjetdan ajratiladigan mablag‘larni maqsadli ishlatilishi ustidan doimiy idoraviy va moliyaviy nazorat olib borilishini ta’minlash maqsadga muvofiqligi haqida xulosaga keladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bob ham uch paragrafdan iborat.

Bobning **“Xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olishga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasining qiyosiy huquqiy tahlili”** deb nomlangan birinchi paragrafida dissertant Shvetsiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya, Indoneziya kabi davlatlar qonunchilik tajribasi va amaliyotini o‘rgangan.

Dissertant tahlillar natijasiga ko‘ra, Shvetsiya va Yaponiya kabi davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishda maktablarda boshlang‘ich sinflardan boshlab maktab o‘quvchilariga yuksak axloqiy ta’lim berish tizimini joriy etish lozimligini ilgari surgan. Misol uchun, Yaponiyada bolaga tarbiya berish davlat boshlang‘ich va o‘rta umumta’lim maktablarining o‘quv dasturida “dotoku keiku”, ya’ni, axloqiy tarbiyani o‘rgatishga qaratilgan aniq fanlar orqali amalga oshiriladi.

Muallif tomonidan Shvetsiya tajribasiga asosan maktablarda bolalarning yozma ishlarini tekshirishni raqamlashtirish lozimligi, bunda identifikatsiya kodlari berish yo‘li bilan shifrlangan ishlar avtomatik ravishda tegishli pedagog xodimlarga tekshirish uchun yuborilishi, mazkur amaliyot maktablarda yozma ishlarni tekshirishning va ularni baholashning xolisligini ta’minlashga xizmat qilishi ta’kidlanadi.

Shuningdek, dissertant Singapur tajribasidan kelib chiqib, maktab va ota-onalar o‘rtasida faol va doimiy hamkorlik aloqalarini o‘rnatish va ularni yanada mustahkamlash maqsadida **“Ota-ona va maktab hamkorligi”** (School-parent partnerships) deb nomlangan maxsus dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiqligini bildiradi.

Indoneziya davlati tajribasini o‘rganish natijasida muallif kam ta’minlangan va yordamga muhtoj oila farzandlari uchun **“Halollik do‘koni”** (Honesty Shop) hamda **“Halollik oshxonasi”** (Honesty Canteen) kabi bepul yoki arzonlashtirilgan do‘konlar va ovqatlanish xonalari tashkil etishni taklif qiladi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi **“Xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy asoslarini takomillashtirish”** deb nomlanib, unda muallif bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalaridan xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olish maqsadida foydalanishning joriy holati hamda uni takomillashtirish masalalarini tahlil etgan. Dissertant shaffof raqamli texnologiyalarni ko‘proq qo‘llash korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda, ularni oldini olishda foydalanish uchun eng samarali vosita ekanligini qayd etib, korrupsiyaning oldini olishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalarning funksional imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni shartli ravishda quyidagi modellarga ajratib ko‘rsatadi:

davlat organlari ishining ochiqligini ta‘minlash va korrupsiyaviy jinoyatlar sodir etilganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni yig‘ish uchun yangi raqamli platformalarni shakllantirish (oshkoralik modeli);

mansabdor shaxslarning mansab vakolatlarini suiste‘mol qilganliklari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tezkor ravishda olish uchun davlat idoralari va davlat xizmatlari iste‘molchilari o‘rtasida qayta aloqa platformalarini yaratish (teskari aloqa modeli);

elektron hujjat aylanuvi tizimi va ommaviy axborotni raqamli himoya qilish (hujjat aylanuvining ochiqligi modeli);

ehtimoliy korrupsiya xatarlarini baholash va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashning raqamlashtirilishi (raqamli muvofiqlik modeli);

qaror qabul qilish jarayonida korrupsiya holatlariga duchor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslarning minnatdorlik izhorini kamaytirish (qaror qabul qilish tizimini avtomatlashtirilganlik modeli);

mansabdor shaxslar va davlat xizmatlari iste‘molchilari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani istisno qiluvchi davlat xizmatlaridan onlayn tarzda to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishni joriy etish (to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish modeli);

faoliyati davomida korrupsiyaviy holatlarga duchor bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslarning va ularning oila a‘zolarining moliyaviy faoliyatini nazorat qilish (moliyaviy monitoring modeli).

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi **“Xalq ta’limi sohasida korrupsiyaning oldini olishga oid milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish masalalari”** deb nomlangan bo‘lib, unda X.Palacios, A.Bonxote, G.Sanches va P.Kinyones kabi olimlarning fikrlari tahlil qilinib, maktab ta’limi tizimida korrupsiyaning oldini olish choralarining barcha davlatlar uchun universal bo‘lgan aniq bir modeli mavjud emasligi, har bir davlat o‘z qonunchiligi, jamiyatning qarashlari va huquqiy ongi hamda boshqa holatlarni inobatga olgan holda eng maqbul yechimlarni ishlab chiqishi kerakligi haqidagi qarash ilgari suriladi.

Dissertantning fikricha, maktab ta’limi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan samarali boshqaruvga erishish uchun shaffoflik, hisobdorlik hamda siyosiy iroda va ishonchni uyg‘unlashtirish zarur. Bunda, islohotlarni quyidagi asosiy qoidalarga amal qilgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Shaffof tartibga solish tizimlarini yaratish va ularga amal qilinishini doimiy ravishda ta'minlab borish:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ta'limga ajratiladigan resurslarni taqsimlash, ajratish va ulardan foydalanish bo'yicha turli manfaatdor tomonlar o'rtasida mas'uliyat va majburiyatlarning aniq chegarasini belgilovchi normalar, shaffof ma'muriy tartib-taomillar va korrupsiyaga qarshi siyosat asoslarini belgilash zarur.

2. Yuqorida sanab o'tilgan normalar va tartib-taomillar qoidalarini ishlab chiqishda noto'g'ri amaliyotlarning (masalan, korrupsiyaning va korrupsiyaviy omillarning) qonuniylashtirilmasligiga alohida e'tibor berish kerak. Aksincha, institutlar va shaxslarni yanada mas'uliyatli, shaffof va «meritokratik» qilish, samarali ish faoliyatini mukofotlash choralari kerak. Shu bilan birga, manfaatlar to'qnashuvi va tanish-bilishchilik kabi xavflarning oldini olish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish kerak.

3. Moliya-xo'jalik faoliyatini yuritish bilan bog'liq qoidalar, shu jumladan, xarid tartib-taomillarini standartlashtirish, xodimlarni boshqarishning yagona qoidalarini ishlab chiqish, maktab va mahalliy hokimiyat tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo'yicha o'zaro kelishilgan formatni qabul qilish tizimda shaffoflikni oshirishga katta hissa qo'shadi.

4. O'qituvchilik kasbiga qo'yiladigan axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqish yanada qulay ta'lim muhitini yaratishga, shu bilan birga, kelajak avlod tomonidan sifatli ta'lim olish va yetuk axloqiy qadriyatlarni egallashga bevosita yordam beradi.

Hisobdorlikni kuchaytirish maqsadida boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirish:

1. Menejment, buxgalteriya hisobi, monitoring va audit bo'yicha ko'nikmalarni takomillashtirish maktab ta'limi tizimidagi korrupsiyani kamaytirishning asosiy talablari hisoblanadi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi jamoaviy immunitetni shakllantirishda nafaqat ma'muriy xodimlarni balki boshqa manfaatdor tomonlar, shu jumladan, ota-onalar, o'qituvchilar va tegishli fuqarolik jamiyati institutlarining ham korrupsiyaga qarshi tayyorgarligini oshirish lozim bo'ladi.

2. Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari, shu jumladan, avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish boshqaruvda shaffoflikni ta'minlash va nazorat funksiyasini amalga oshirishning samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Zero, bu kabi vositalar tizimning to'g'ri ishlashiga nisbatan individual aralashuvlarni kamaytirishga yordam beradi.

3. Maktab resurslari va ma'lumotlarini nazorat qilish mexanizmlari ma'muriy xodimlardan mustaqil bo'lishi kerak. Ayniqsa, tashqi audit o'zining avtonomligi, betarafliigi, muntazamligi va ishonchliligi bilan ajralib turishi kerak. Shundagina, har qanday kamchilik erta aniqlanishi va uni bartaraf etish choralari darhol ko'rilishi mumkin. Korrupsiyani keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan har qanday katta-kichik xatolar va kamchiliklar intizomiy va boshqa turdagi jazolar qo'llanilishi tahdidi orqali cheklanishi lozim.

4. Korrupsiyalashgan muhitda ta'lim boshqaruvini markazlashtirishdan chekinish, ya'ni, vakolatlarni o'rta va quyi bo'g'in (viloyat va tuman bo'linmalari, maktablar)ga o'tkazish, odatda, markaziy apparatdagi korrupsiyaviy amaliyotlarning imkoniyatlarini cheklashga yordam beradi. Shu bilan birga, vakolatlarning quyi bo'g'inlarga o'tkazilishi imkoniyatlari faqatgina aniq me'yorlar (funktsiyalarni amalga oshirishning aniq tartib-taomillari) belgilanganda hamda maktab ta'limi tizimini boshqarishda samaradorlikni oshirishga yordam bergan taqdirdagina ko'rib chiqilishi kerak.

Boshqaruv jarayonlarida daxldorlik hissini oshirish:

1. "Pastdan yuqoriga" yondashuvi, ya'ni, ijtimoiy safarbarlik va nazorat tamoyiliga asoslangan islohotlar strategiyasi shaffoflikni oshirish va javobgarlikni kuchaytirishga yordam beradi. Zero, mazkur yondashuv quyi darajada tizim vakillarining ishtirokiga hamda siyosatni ishlab chiqishda va uni amalga oshirishda manfaatdor tomonlarning bevosita ishtirokini ta'minlashga ko'proq e'tibor qaratadi.

2. Jamiyat vakillarining yetarlicha axborotga egaligi yoxud axborot olish tartib-taomillarining qulayligi jamoatchilik nazorati va daxldorlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu sababli, bunday axborotlarni taqdim etishga mas'ul bo'lgan ma'lumot manbalari – maktablar nafaqat firibgarlikni aniqlay olishlari, balki o'zlarining vakolatlarini hamda o'z manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini ham yetarli darajada bilishlari lozim.

3. Chuqurlashtirilgan monitoring, shu jumladan, kasb yuzasidan o'z-o'zini nazorat qilish (universitetlar tomonidan "odob-axloq kodekslari"ni qabul qilish, darsliklarni ishlab chiqarishda halol hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi) ijtimoiy faollikni va nazoratni rag'batlantirish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga hissa qo'shishi mumkin.

4. O'qituvchilarning xulq-atvor kodekslarini ishlab chiqish va joriy etishda o'qituvchilarning bevosita ishtiroki ta'minlanishi lozim. Shu orqali, o'qituvchilarning mazkur qoidalarga rioya qilishga bo'lgan mas'uliyati va daxldorligini oshirish mumkin. Yuqoridagilarga erishish maqsadida xabardorlikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil etish, faol ma'lumot almashishni yo'lga qo'yish, salohiyatni oshirish va "yalpi ishtirokni ta'minlash"ga qaratilgan choralarni kuchaytirish lozim.

X U L O S A

"Xalq ta'limi sohasida korrupsiyani oldini olish masalalari" mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

